



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (998) 55-520-08-08, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz

2025-yil 20-oktabr

02/12- 4/1-8455-son

**Oliy ta’lim muassasalari
rektorlari (direktorlari)ga**

*YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Milliy komissiyasining
2025-yil 19-sentabrdagi 308/25-sonli xatiga muvofiq*

YUNESKO tashkiloti tomonidan Mikrobiologiya sohasida (immunologiya, molekulyar biologiya, genetika) Kuba Hukumati tomonidan moliyalashtiriladigan YUNESKO-Karlos J.Finley mukofotiga tanlov e’lon qilingan. Batafsil ma’lumot quyidagi veb sahifada keltirilgan:

<https://www.unesco.org/en/prizes/carlos-j-finlay>

Ushbu mukofot o‘z tadqiqotlari va yutuqlari orqali mikrobiologiya sohasi va uning qo‘llanishiga katta hissa qo‘shgan shaxs, muassasa, nodavlat tashkilotlarini mukofotlash uchun mo‘ljallangan.

YUNESKO-Karlos J.Finley mukofotiga tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlarning hujjatlari ingliz va fransuz tillarida **2025-yil 30-noyabr kuniga qadar** onlayn platformada to‘ldirilishi zarur. Nomzodlar anketasini to‘ldirish tartibi bilan quyidagi havola orqali tanishib chiqish mumkin:

<https://www.unesco.org/en/prizes/carlos-j-finlay/nomination>

Yuqorida keltirilgan tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlar to‘g‘risidagi ma’lumotni **joriy yil 18-noyabr kunigacha** vazirlikning Xalqaro hamkorlik va reytinglar boshqarmasi elektron manzili (sh.eshqobilova@edu.uz)ga yuborishingizni so‘raymiz.

O‘z navbatida, oliygohlar tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar ro‘yxati umumlashtirilib, ko‘rib chiqish uchun YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Milliy komissiyasiga taqdim etiladi.

Ilova: v.

**Vazirning birinchi
o‘rinbosari**



S. Radjabov